

Teran tomirla



Muvashshah arabcha “vashshah” – “kamar”, “belbog’ich” so’zidan olingan bo’lib, ma’nosi “bo’yni bog’langan” demakdir. Tavshih(arabcha – “bezamoq”, “ziynatlamog”) lafziy san’ati asosida yaratiladigan muvashshah she’rning har bir misra, bayt yoxud bandining(ba’zan taqte’lar chegarasidagi) boshlanish harflaridan biror narsa yoki shaxsning nomi kelib chiqadi. Muvashshah qit’a, ruboiy, muammo, g’azal, musammat, mustazod kabi turli janr shakllarida yaratilgan.

Bu janr to’g’risida Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, To’xta Boboyev, Anvar Hojiahmedov, Qo’ldosh Pardayev singari olimlarning tadqiqotlari ahamiyatli. Jumladan, akademik Aziz Qayumov quyidagicha fikr bildirgan: “Muvashshah g’azalda keltirilgan sifatlashlar, shoirona tasvirlar ko’proq Sharq adabiyotiga xos an’anaviy xarakterga ega. Muvashshah shoir mahoratining bir namoyishi”. Haqiqatan ham, muvashshah shoirdan katta mahorat talab qiladi, chunki keltirib chiqarish ko’zda tutilgan ism misra yoki baytni ma’lum bir harf bilan boshlashni talab etadi. Bu esa misra yoki baytni mazmun ifodasi uchun eng maqbul so’z bilan emas, chiqariladigan ismga mos so’z bilan boshlashni taqozo qiladi. Shunday ekan, muvashshah yuksak mahorat va did bilan yaratilmasa, she’rning badiiy saviyasi tushib ketishi mumkin.

Forsiy adabiyotda muvashshahga oid ilk ma’lumotlar Umar Roduyoniyning(XI asr) “Tarjumon ul-balog’a” asarida berilgan. Muallif bu janrning lug’aviy ma’nosini izohlab “...bunda shoir qasida baytlaridagi avvalgi harflarni olib, she’rning asosini paydo qilur. Ajratilgan harflar birlashtirilsa, ma’lum bir so’z hosil bo’ladi...” deya ma’lumot beradi va fikrini dalillash uchun shoir Muvaqqariy qalamiga mansub forsiyda bitilgan baytlar toq misralarining birinchi harflaridan “Daryo” so’zi kelib chiqadigan muvashshahni misol qilib keltiradi.

XV asr Hirot adabiy muhitida katta-kichik qasidalarni muvashshah shaklida yaratish an’anasi mavjud edi. Bu davrda muvashshah misralari ichida qizil siyoh bilan ajratib yozilgan so’zlar jamlanganda bir yoki bir necha bayt she’r paydo bo’ladigan murakkab turini yaratish urf bo’lgan. Mavlono Kotibiy, mavlono Ali Sheroziy, Xoja Salmon Savojiy kabi Hirot adabiy muhitining yetakchi shoirlari yaratgan qasidalar shunday shaklda yozilgani manbalardan ma’lum. Ayniqsa, Ahliy Sheroziyning “Kulliyoti Ahliy Sheroziy” muvashshah-qasidayi masnu’si va Xoja Salmon

Savojiyning “Qasidayi Masnu” nomli o’ta murakkab, bir necha bahr, turli she’riy san’atlar qo’llanilgan muvashshah tariqida yozilgan asarlari shuhrat qozongan.

O’zbek adabiyoti tarixida murakkab va nozik she’rlarni yaratish an’anasi XV asrda mavjud bo’lgan. Bunga turkiy adabiyotning yetuk olimi Shayx Ahmad Taroziyning turkiy tilda bitilgan “Funun ul-balog’a” asari yorqin misol bo’ladi. Olim asarda muvashshahni maxsus san’at sifatida tilga oladi: “...she’rning avvalgi harflarini terib olsalar yo o’rtadagi harflarini olib jam qilsalar... (ism) bo’lur. She’rning bir misrasi harflarida ham ism muzayyan bo’lishi mumkin” deb yozadi va “Mirak” ismiga bitilgan muvashshahni namuna sifatida keltiradi:

**Mehringni tutar jon ichinda ko’nglum,
Andog’ki javohir erur ul kon arosinda.
Yuzung g’amidin har kecha qon yig’lamag’imdin
To subh uzarmen, sanam, qon arosinda.
Ranjur bo’lub kelmadi mushk o’zga Xo’tandin.
Zulfung sifatidin yozg’oli devon arosinda.
Gar tekxa o’qung xasta yurakimga, – kuyormen
Kuygan Mirak – o’q bu dili biron arosinda.**

Muvashshahning olim aytganidek, agar “she’rning bir misrasi harflarida ism muzayyan bo’lishi mumkin bo’lgan” turi mavjud bo’lsa, buni Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ism berilishida uchratish mumkin:

**Anga farzona Farhod ism qo’ydi,
Hurufi ma’xazin besh qism qo’ydi:
Firoq-u rashk-u hajr-u oh ila dard,
Biror harf ibtidodin aylabon fard.
Borin ustodi ishq etgach murakkab,
Tarakkubdin bu ism o’ldi murattab.**

Buni garchi “Funun ul-balog’a”dagi ma’lumotga tayanib muvashshah deb baholasak-da, biroq bu Sharq poetikasida **hurufi dalolat** nomlanadigan harflarga mazmun bag’ishlash san’ati ekanligi ma’lum bo’ladi. Bunda shoir “fi roq”, “rashk”, “hajr”, “oh”, “dard” (arab yozuvida qisqa “a” harfi ifoda etilmaydi) so’zlarining birinchi harflaridan “Farhod” ismini hosil qiladi va mazkur harflar uning qismatini aks ettiradi. Shuningdek, she’riyat ilmiga oid biror manbada bu she’riy san’at asosida muvashshah yaratish mumkinligi haqida ma’lumot uchramaydi. Bizningcha, “she’rning bir misrasi harflarida” deyilganda misralarning birinchi harflari nazarda tutilgan bo’lsa kerak, chunki asarda “Munung bir misraning harflarini olsalar, “Muhammad” bo’lur” deya namuna sifatida keltirgan muvashshahi odatdagi muvashshah shaklida:

hosil qilinishi aytiladi va “Odam” ismiga bitilgan muammo misol qilib keltiriladi:

**Dili moro chu xoh-u boz justash
Z – oh-u dard-u mehnat cho’naxistash.
(Ma’nosi:
Dilimizni yana axtarmoqchi bo’lsang,
Oh, dard, mehnatdan birinchisini qidir.)**

Bu muammoni yechish uchun “oh”, “dard”, “mehnat” so’zlarining bosh harflari olinsa, “Odam” ismi kelib chiqadi. Shuningdek, asarda “Malik” ismi kelib chiqadigan yana bir muammo keltirilgan. Navoiy muammoning bu turini “Farhod va Shirin” dostonida Farhodga ism qo’yish bobida ham qo’llagan:

Jamoliddin ko’rungach farri shohi,
Bu fardin yorudi mah to bamohi.
Qo’yub yuz himmat-u iqbol-u davlat,
Hamul far soyasidin topti ziynat.

Bunda “farri shohi”ning soyasiga(davomiga) himmat, iqbol va davlat so’zlarining yuzi, ya’ni bosh harflari qo’shilsa, Farhod ismi kelib chiqadi.

Shoira Uvaysiyning “Jahon” ismi yashiringan quyidagi muammosi(manbalarda muvashshahi muammo deb ham yuritiladi) ham xuddi shu usulda yaratilgan:

**Jim-u, ho-yu, alifi nunkim darding yuki birla
Dilida nuqtasi, bag’rida dog’i loyiqi xunman.**

Baytning birinchi misrasidagi jim, alif, ho, nun jahon bo’lsa, ikkinchi misrasidagi “Dilida nuqtasi bag’rimda dog’i” so’zlari “n” harfi ni, mazmun e’tibori bilan yurak dog’i, ko’ngil g’ussalarini ifodalab kelgan. Bu muammoda jim, alif, ho, nun harflari kitobat san’ati tarzida ham mahorat bilan qo’llanilgan.

Xullas, muvashshah va muammoda ko’pincha ismni berkitish hamda berkitilgan ismni topish usullarining berilishi jihatidan o’xshashlik kuzatilsa-da, barcha muvashshahlarda ham ism yashirilganiga maxsus ishoralar berilmaydi. Shuningdek, shakl va mazmun jihatidan ham farqlanishiga ko’ra ular alohida she’rlar hisoblanadi.

Muvashshah haqida to’liq ma’lumot XV asrda yashab ijod etgan shoir va olim Atoulloh Husayniyning forsiyda bitilgan “Badoyi’ us-sanoyi” asarida uchraydi. Olim bu xususida quyidagilarni yozadi: “**Tavshih ajam shuarosi nazdida andin iboratturkim, shoir misra yoki baytlarning boshida yo alarning o’rtasida bir necha harf yoki bir necha so’z keltirurkim, ul harf yoki so’zlar jam’ qilinsa, bir ism yo bir laqab yo bir misra yo bir bayt bo’lur yoki anga o’xshash bir nima hosil bo’lur va bu san’atni o’z ichiga olgan she’rni muvashshah der-**

Ma’shuqa dilam ba tirilar...”Olim bunga misol qilib Navoiyga bag’ishlangan **anduh naxustalisher** ismi bilan bezalgan muvashshah-qit’asini keltiradi:
**Hayron shudam-u kasam namegirad dast,
Miskin dili man ba poyi Izzat-u davlat, ilohiy, bod bo fath-u zafar,
mehnat shuda, Shahriyor-i mulk-i donishro hamesha beshumor!
Dasti g’ami do’st pushti
man xirad shikast.** (Ilohim, ilm mulkining shahriyoriga hamisha hisobsiz fath-u zafar bilan izzat-u davlat kelsin.)

Shuningdek, ba’zi manbalarda muvashshah aslida muammo zaminida paydo bo’lgan, degan fikrlar ham mavjud. Aniqlik kiritish maqsadida Navoiyning “Mufradot” asari ko’zdan kechirilsa, unda muammo amallari uch qismga ajratilgan va birinchi qism – **a’moli tahsilning in-tiqod**(saralash) degan turiga ko’ra so’zning ba’zi harflarini olish orqali muammo

**Lutf kun dar zill-i shah, yo rab, bidorash to magar
Yobad oromish ba izzu adl-i ehson ro’zgor.**

(Yo rab, lutf qil, uni shoh soyasida saqla, toki ularning qudrat-u adldan zamona tinch bo’lsin!)

**Yo rab, ehson kun ba fazilat davlat-i uqbo, ki o’
Rasm-i ehson kard dar dunyo ba davlat oshkor.**

(Yo rab, fazling bilan unga oxirat davlatini ehson qil, chunki u davlatga bu dunyoda ezgulik rasmini bunyod qildi). Mazkur qit’aning(eski o’zbek yozuvida bitilganini e’tiborga olgan holda) birinchi misrasi



MUVASHSHAHCHILIK ANʼ

boshidagi harflar jamʼ qilinsa, Ali hosil boʻlur, ikkinchi misraning oldidagi harflar jamʼ qilinsa, sher hosil boʻlur. Birinchi misraning hashvidagi soʻzlar jamʼ qilinsa, quyidagi misra hosil boʻlur:

*Ilohiy bidorash ba fazilat.
(Ilohiy uni fazlingda tut).*

Ikkinchi misraning hashvidagi soʻzlar jamʼ qilinsa, quyidagi ikkinchi misra hosil boʻlur:

*Hamesha ba izzu ba davlat
(Hamisha qudrat-u davlatda.)*

Agar soʻzni misra va baytlarning tartibi bilan jamʼ qilsalar, ushbu bayt hosil boʻlur:

*Ilohiy hamesha bidorash
Ba izzu ba fazilat ba davlat*

*(Ilohiy, hamisha tut ani
Qudrat-u fazlingda, davlatda)*

Qitʼa mazmuni quyidagicha anglashiladi: “Ilohim ilm mulkining shahriyoriga hamisha hisobsiz fath-u zafar bilan izzat-u davlat kelsin! Yo rab, lutf qil, uni shoh soyasida saqla, toki ularning qudrat-u adlidan zamona tinch boʻlsin! Yo rab, fazling bilan unga oxirat davlatini ehson qil, chunki u davlatga bu dunyoda ezgulik rasmini bunyod qildi”.

Olim tavshih sanʼati borasidagi mulohazalarini davom ettirib, uning qasidada qitʼa shaklida qoʻllanishini taʼkidlaydi va bu sanʼatni oʻz ichiga olgan eng yaxshi *qasida* – *qasida-yi masnua* xos bezaklarga ega boʻlgan, sanʼat darajasidagi)ning baytlari boshidagi harflar ardan latif bir qitʼa chiqishini aytadi va yozadi: “birinchi misralar hashvidagi harflar ardin alifin xoliy(alif harfi ishlatilmagan) ikkinchi bir qitʼa kelib chiqar va ikkinchi misralar hashvidin oʻrun olgan harflar din nuqtasiz(nuqtali harflar ishlatilmagan) oʻzga bir qitʼa chiqar, dagʻi oʻzga rangda yozilgan abyotta berilgan alfoz-u huruftin abyoti masnuʼa chiqar”.

Shuningdek, muallif Rashiddin Vatvot va Shamsiddin Qays Roziy kabi olimlarning tavshih sanʼati borasidagi fikrlarini keltirib, bu sanʼat haqida atroflar bilan maʼlumot beradi. Atoullah Husayniyning mazkur fikrlariga koʻra tavshih lafziy sanʼati asosida yaratilgan sheʼrning muvashshah deyilishi maʼlum boʻladi. Oʻzbek adabiyotshunosligida ham A.Hojiahmedov va D.Quronovlarning bu janr haqidagi maʼlumotlari Atoullah Husayniy maʼlumotlari bilan oʻxshash boʻlsa-da, negadir A.Hojiahmedov tavshihni *maʼnaviyanʼat* deb hisoblaydi. Maʼlumki, mumtoz adabiyotshunoslikda badiiy sanʼatlarni nutqning koʻproq qaysi jihatiga bezak berishi jihatidan lafziy, maʼnaviy hamda lafziy-u maʼnaviy sanʼatlar koʻrinishida tasniflash anʼanasi shakllangan. Nutqning maʼno tomoni bilan bogʻliq boʻlib, uning maʼno goʻzalligini taʼminlashga xizmat qiluvchi sheʼriy sanʼatlar maʼnaviy sanʼatlar, sheʼrning koʻproq shakl tomoniga eʼtibor qaratgan holda uning uslubiga bezak beruvchi sanʼatlar lafziy sanʼatlar, ham shakliga, ham maʼnoga aloqador boʻlgan sanʼatlar *esalafziy-u maʼnaviy* yoki *mushtarak sanʼatlar* yuritiladi. Tavshih sanʼati asosida yaratilgan sheʼrda ham maʼno jihatini unutmagan holda koʻproq shakl tomoniga bezak beriladi. Shunga koʻra “Tavshih lugʻatta vishoh, yaʼni boʻyunbogʻni bironing boʻynigʻa ilmaktur. Sheʼrgʻa harf yoki soʻzlarni kiritmak anga oʻxshagʻani uchun bu maʼnoda anga tavshih deb nom qoʻyupturlar” deb taʼkidlab, shakl ustunligini eʼtiborga olgan va tavshihni lafziy sanʼatlar qatoriga qoʻshgan Atoullah Husayniyning yondashuvi asosli, nazarimizda.

Adabiyotshunoslikda muvashshahga alohida sheʼriy janr sifatida ham, badiiy sanʼat sifatida ham qarash mavjud. Masalan, adabiyotshunos T.Boboyev muvashshahga maʼnaviy sanʼatlardan biri, ayni chogʻda

poetik janr, deb taʼrif beradi. O.Nosirov, S.Jamolov, M.Ziyovuddinovlarning “Oʻzbek klassik sheʼriyati janrlari” kitobida ham muvashshah adabiy termin sifatida maxsus bir usul – sanʼat deb taʼriflanadi va oʻzbek klassik gʻazaliyotidagi gʻazal turlaridan biri – *gʻazali muvashshah*da maʼlumot beriladi. Muvashshahga badiiy sanʼat sifatida qarash yana boshqa manbalarda ham uchraydi.

Maqsud Shayxzoda “Furqat haqida qaydlar” maqolasida muvashshahni janr deb ataydi. F.Salayev, G.Qurboniyozovlarning “Adabiyotshunoslik atamalarining izohli soʻzligi”da ham u lirik janr sifatida beriladi. “Adabiy turlar va janrlar” uch jildlik oʻquv qoʻllanmaning 2-jildida hamda E.Xudoyberdiyevning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida ham muvashshah shakl mazmundorligi va tuzilishiga koʻra lirika janrlari qatorida beriladi. Uning oʻziga xos janr shakli belgilariga ega emasligi, yaʼni boshqa janr shakllarida yaratilishi, shuningdek, janr talablariga toʻla javob bermasligi jihatidan mustaqil janr boʻla olmasligi maʼlum boʻladi. Shunga koʻra muvashshahni tavshih lafziy sanʼati asosida yaratilgan sheʼriy shakl deyish maqsadga muvofiqlik qidir va quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1. Mavzusiga koʻra: (majoziy), diniy-tasavvufiy, ijtimoiy.

2. Turli janr shakllarida yaratilganiga koʻra:

muvashshah-gʻazal, muvashshah-ruboiy, muvashshah-muammo, muvashshah-qitʼa, muvashshah-muxammas, muvashshah-murabbaʼ, muvashshah-musamman, muvashshah-mustazod kabi.

3.Shaxs yoki narsa nomi berkitilganligiga koʻra:

zamondosh shaxs, vafot etgan shaxs, ayol nomi, erkak nomi, narsa nomi, alifbo harflari.

4. Muvashshah-sheʼr matnining nomi yashirilgan shaxsga aloqadorligiga koʻra:

onomatoponik yaratilgan shaxsga bagʻishlangan muvashshah, nomi berkitilgan shaxsga aloqasi boʻlmagan muvashshah, shoirning oʻz taxallusi yashirilgan muvashshahlar.

5. Muayyanishoralamavjudligiga koʻra:

muayyan ishoralar mavjud, ishoralar mavjud boʻlmagan.

6. Vazniga koʻra:

1) aruz vaznida yozilgan muvashshahlar; a) baytdagi toq misralardan; b) juft misralar yoki qofi yali misralardan; d) baytning har ikkala misrasi qoʻshaloq tarzda; e) musammatlarda har bir bandning birinchi misrasi bosh harflaridan ism yoki nom chiqishi;

2) barmoq vaznida yozilgan muvashshahlar: har bir misraning birinchi harflaridan ism yoki narsa nomi hosil qilinadigan va hokazo.

Ushbu sheʼriy shaklning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Abdulloh ibn Moʻtazning(861–908) “Kitob ul-badeʼ” asari muqaddimasida “Mazkur kitobda biz keyingi davr(ulamolari) “Badeʼ” deb atagan ilmining bob va fasllarida Qurʼon tilida, Rasululloh(s.a.v.) hadislarida, sahobalar va tobeʼinlarning soʻzlashuv tilida, mutaqqaddim shoirlarning sheʼrlarida uchraydigan badiiy ifodalarni tasniflab chiqdik” deyish barobarida istiora sanʼatiga misol keltiriladi. Muvashshahning dastlabki namunalari ham xuddi shu anʼanaga koʻra yaratilganini quyidagi maʼlumot tasdiqlaydi: “Oʻtmishda baytlarning bosh harflari orqali biron oyat, hadis yoki hikmat ham bayon qilingan”. Biroq manbada bunga misol keltirilmaydi. Rus sharqshunosi I.Y.Krachkovskiyning “Ispaniyada arab sheʼriyati” asarida qayd etilishicha, arab-istan adabiyoti tarixchisi, Portugaliyaning Shantarena shahridan boʻlgan Ibn Bassam(vaf. 1147) bergan maʼlumotlarga koʻra, muvashshah birinchi boʻlib X asr boshlarida Kordova(Ispaniya)da yashagan shoir Muqaddam ibn Muofa al-Kabriy tomonidan yaratilgan. Boshqa manbalarda bunday sheʼrlar arablar-da musiqaga solib kuylangani yoziladi.



Professor Fozila Sulaymonova “Sharq va Gʻarb” asarida muvashshah arablarning Ispaniyadagi hukmronligi davrida yaratilganini taʼkidlab, shunday yozadi: “XI–XII asrlarda Ispaniyada arab sheʼriyatining muvashshah va zajal janrlari keng rivojlandi. Bunday sheʼrlar yaratgan shoirlarning mashhurlari Abu Bakr Muhammad ibn Zuhr(1110-1111-yillar vafoti) edi. Arab sheʼriyati bayt, muvashshah esa band asosiga quriladi. Bu janrlar ikki xalq adabiyotining oʻzaro birlashuvi natijasida dunyoga kelgan ikki madaniyat mahsulidir”. Shuningdek, olim ayrim Gʻarb olimlarining muvashshah Yevropa sheʼriyati taʼsirida yaratilgan, degan asossiz daʼvolariga javob tariqasida kuyunchaklik bilan shunday yozadi: “... Ajabo, ovrupolik olimlar qanday yoʻl bilan boʻlmasin oʻzlarini koʻtarish, Sharqni kamsitishga urinadilar. Axir ular faraz qilgan portugal folklor sheʼriyatidan biror namuna, birorta ham misra yoʻq-ku, arab sheʼriyatida esa gʻazal mavjudligiga eʼtibor bermaydilar. Ovrupolik olimlar fikrlarining tasdigʻi sifatida arablar hukmronligi davrida yaratilgan zajal, ayniqsa, muvashshahda ispan soʻzlari, misralari mavjudligini keltiradilar. Toʻgʻri, Andalusiyah aholisi ikki tilli boʻlgan. Shuning uchun xalq vakillari tomonidan ashula qilib aytishga moʻljallangan sheʼrlarda ispan soʻzlari uchrashini Ovruponing qadimiy sheʼriyati deb boʻlmaydi”. Olim oʻz fikrini akademik I.Krachkovskiyning “Ispaniyada arab sheʼriyati” tadqiqotida keltirilgan quyidagi fikrlari bilan asoslaydi: “Ispaniyadagi arab sheʼriyati ilk bor provansal, u orqali butun Ovrupo xalqlari sheʼriyatiga taʼsirini oʻtkazgan”. Bu kabi ilmiy qarashlarni professor N.Komilovning “Tafakkur karvonlari” asarida ham uchratish mumkin: “Rumoniylar xalqlarining ogʻzaki ijodiyoti, raqs va musiqa sanʼati bilan arab sheʼriy ohanglari qoʻshilib, yangi, oʻziga xos bir madaniyat yuzaga keldi. Ikki tilli xalqning ikki tildagi sheʼriyati, xususan, “shir-u shakar” zajal(*oʻzbek mumtoz adabiyotida har bir bandi toʻrt misradan iborat murabba shaklidagi sheʼrlar*)da yaqqol koʻzga tashlanadi. Zajalni muvashshah ham deganlar, u xuddi gʻazal kabi qasidaning bosh qismi – nasibdan (lirik kirish – tabiat tasviri) kelib chiqqandir”. Olim Gʻarb sharqshunosi Menendes Pidalning bu boradagi joʻyali mulohazalari bilan fikrini asoslaydi: “Sheʼriy janrning bu turi X–XII asrlarda Ispaniya, Italiya hamda Fransiya keng taraqqiy etgan. Atoqli zajalnavis shoirlar Ibn Kuzman bilan Ibn Zaydun Yevropa shaharlari boʻylab oʻz asarlarini kuylab yurganlar... Arablar borganga qadar lirik sheʼrning bu turi Gʻarbiy Yevropada yoʻq edi”. Tarixchi Ibn Xaldun, zajal dastlab arab shoiri Muqaddam ibn Muofa al-Kabriy(IX asr) tomonidan adabiyotga kiritilgan, deydi. Zajal musiqaga moʻljallab bitilganidan u hamisha qoʻshiq qilib kuylangan.

(Davomi 4-betda.)

O‘ZBEK ADABIYOTIDA MUVASHSHAHCHILIK AN

(Davomi. Boshi 2-, 3-betlarda.)

M.Pidal aytmogchi, Sharq-u G‘arb ruhi mujassamlangan bu she‘riyat – “ikki madaniyat qonidan paydo bo‘lgan farzanddir”. E‘tibor beradigan bo‘lsak, F.Sulaymonova muvashshah va zajalga alohida janr sifatida qaraydi, N.Komilov esa zajalning muvashshah deb ham nomlanganini ta‘kidlaydi. Agar uning turli she‘riy janrlarda yaratilishi mumkinligini e‘tiborga oladigan bo‘lsak, zajalni muvashshahning murabba‘ janrida yaratilgan turi, degan xulosaga kelish mumkin. Xullas, musammatlarning vujudga kelishida muvashshah va zajal kabi arab she‘riyatidagi bandli she‘r shakllarining ta‘siri kuchli bo‘lganligi muvashshahning qadimiy janrlardan ekanligini ko‘rsatadi.

Muvashshah G‘arb she‘riyatida “краестишие” (chetki satr) yoki akrostix (yun.akros – chekkasi, stichos – misra) deb nomlangan she‘riy shaklga o‘xshaydi. Akrostixda ham yuqoridan pastga qarab o‘qilgan she‘r misralarining bosh harfi dan so‘z yoki jumla hosil qilindi. Shu tarzda ko‘pincha muallif yoki she‘r bag‘ishlangan shaxsning nomi yashirilgan. Akrostixdan tashqari misralarining oxirgi harflari ari muayyan so‘zni shakllantiradigan – telestix, shuningdek, so‘z she‘rning o‘rtasida keladigan – mesostix borligi ham ma‘lum. Bundan tashqari, “labirint” – so‘zlarni diagonal ravishda joylashtiriladigan turi ham mavjud. Ammo ular ancha kam tarqalgan.

XVIII–XIX asrlarda Qo‘qon, Xorazm va Buxoro adabiy muhitlari taraqqiy etdi. Bu davrni, shubhasiz, o‘zbek adabiyotida muvashshahchilikning an‘anaga aylangan davri, desak adashmaymiz. Bunda Uvaysiy, Munis, Ogahiy kabi shoirlarning xizmatlari katta bo‘ldi. Ayniqsa, XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib muvashshahchilik an‘anasi keng yoyilib, ommalashib ketganini Maqsud Shayxzoda alohida ta‘kidlaydi. Mazkur davrdagi muvashshahlar, asosan, g‘azal janrida, qisman musammatlarda yaratildi.

Muvashshahlar ko‘pincha ishqiy mavzuda yaratilgani holda ma‘shuqaning ta‘rif-u tavsifi, oshiqning zabun holi kabi motivlar yetakchilik qilsa ham, aksar hollarda ayollar ismi emas, erkaklar nomi yashiringan bo‘ladi. Shuning uchun “...muvashshah kimning ismiga bog‘langan bo‘lsa, o‘sha g‘azalda ta‘rif etilgan obraz aynan mazkur kishining o‘zidir deb o‘ylash xatodir, – deb yozadi M.Shayxzoda. Muvashshahdagi ism bu g‘azalning kimga bag‘ishlanganiga dalolat qiladi, xolos. Asarda tasvirlangan yor esa bus-butun boshqa bir kishi bo‘lishi mumkin. Masalan, Furqatning “Maqsudjon” ismiga bag‘ishlangan g‘azalida ...sevgili yor obrazida tasvirlangan kishi “Maqsudjon” emas, balki go‘zal bir ayoldir”. Muqimiyning Jamolxon nomi bilan bezalgan muvashshah-g‘azalidan olingan quyidagi satrlar ham buni tasdiqlaydi:

*Jumlayi Ho‘qand mavzun qadrlarining sarvari,
Dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari.
Mahv o‘lub mardum xiromini ko‘rub bozor ar
Deydilar ba‘zi “malak”,
ba‘zi “bashar”, ba‘zi “pari”.*

Darhaqiqat, g‘azalda ta‘rif-tavsif qilingan, ko‘rganlar malakmikan, basharmikan, yo parimikan deb mahliyo bo‘lgan dilrabolar dilbari, gulchehralar sardaftari, albatta, Jamolxon ismli kishi emas, balki butunlay boshqa bir go‘zal. Yoki Muqimiyning Nizomxon nomiga bag‘ishlangan muvashshah-g‘azalini ko‘zdan kechirsak:

*Necha gulchehra oshiqlig‘da hayroning bo‘lay,
Bulbuli sho‘ridadek mahvi gulistoning bo‘lay.
Zulm ila javr-u sitam aylab tag‘ofi l topki,
Kel, niqobingni ochib, ey sho‘x, qurboning bo‘lay.*

*El giriftoring agar qosh-u ko‘z-u ruxsoringa,
Men asiri anbarin zulfi parishoning bo‘lay.
Muddao har dilda, lekin menda shulkim orzu
Bismili tig‘i nigohi tiyri mujgoning bo‘lay.
Xurrami xandon netar, jonoki, kelsang oqsh
Lutfl ar aylab debon: “to subh mehmoning b
Aylag‘il oxir o‘zung insofkim tokayg‘acha,
Ro‘zi shab ummidvori ahdi yolg‘oning bo‘lay.
Nogohon har baytidan bir harfdin olib Muqim
O‘qi, noming chiqmas ersa nomusulmoning*


Mazkur g‘azal an‘anaviy 7 baytdan iborat bo‘lib, har bir baytning toq misralaridagi birinchi so‘zning bosh harfi (“necha”dan “n”, “zulm”dan “z”, “el”dan “o”, “muddao”dan “m”, “xurrami”dan “x”, “aylag‘il”dan “o”, “nogohon”dan “n”) terib olinib, bir joyga yig‘ilsa, “n-z-o-m-x-o-n” ismi hosil bo‘ladi. Bu o‘rinda g‘azalning arab yozuvi asosidagi eski o‘zbek yozuvida yaratilganligi hisobga olinsa, “n”dan so‘ng “i” qo‘shiladi va natijada “Nizomxon” ismi kelib chiqadi. Demak, g‘azal “Nizomxon” ismli kishiga bag‘ishlangan. She‘rning qahramoni esa Nizomxon emas, balki an‘anaviy yor obrazi. “Lekin Kamiy muvashshahlari misolida bu qonuniyatga zid holatni ham ko‘rish mumkin”, deb yozadi adabiyotshunos O.Oltinbek toshkentlik shoir Kamiy ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotida. Kamiy ijodidagi Abdulazizxon nomiga yozilgan muvashshahlardan biri noma shaklida bo‘lib, undagi barcha ta‘rif-u tavsiflari Abdulazizxonga tegishli:

*Abdulazizxoni saodat maobgo,
Ma‘zuri ojizona yetur bandin, ey sabo.
Boshingni ostoniga qo‘y avvalo borub,
Yuz-u ko‘zing surub dar-u devor-u qasrig‘o...
Yo rab, Kamiy qulingni duosin ijobat et,
Ul sayyidim haqina ba e‘zoz Mustaf.*

Bu shaxs haqida professor G‘.Karimovning “Muqimiy” monografiyasida shunday ma‘lumot berilgan: “Abdulazizxon – Eskijo‘va tomondan, O‘zgand mahallalik. Abdulazizxon erkin fi krlri, ma‘rifatparvar va san‘at-adabiyotga havaskor kishilardan edi. U shoir, olim va san‘atkorlarga moddiy yordamda bo‘lgan. Uning uyi ilg‘or intilishlarga ega bo‘lgan Toshkent shoirlarining adabiy gurung markaziga aylangan. Muqimiyning u kishi haqida “Xon akam” sarlavhali she‘r yozgani ma‘lum”. Shoir Furqat esa o‘zining Istanbuldan turib yozgan mashhur “Sabog‘a xitob” she‘riy maktubida Abdulazizxon nomini o‘zining yaqin do‘stlari qatorida tilga oladi. Adabiyotshunos olim Sh.Yusupov bu kishining to‘la ismi sharifi Abdulazizxon Boboxon o‘g‘li ekanini aytadi va “o‘zi uchrashgan, hamsuhbat bo‘lgan ajoyib zotlar” haqida bir emas, to‘rtta kitob tasnif etgani haqida ma‘lumot beradi. O‘zidan 10-11 yosh katta bo‘lgan bir zamondoshini “saodat maob”, “janobi oliy”, “sayyidim” deb atashi shoirning Abdulazizxon shaxsiga hurmat-u ixlosini anglatadi. Demak, ma‘lum bo‘ladiki, ba‘zan muvashshahdagi vasf o‘sha muvashshah kimning nomiga yozilgan bo‘lsa, shu nom egasiga tegishli bo‘lishi ham mumkin ekan”. Xuddi shunday muvashshah turini yuqorida Atoulloh Husayniyning Alisher Navoiyga bag‘ishlab yozgan “Alisher” ismi yashirilgan muvashshahida ham guvohi bo‘lgan edik.

Odatda, she‘rning muvashshah ekanligiga muayyan ishoralar bo‘ladi. Masalan, Muqimiyning *Jamolxon* nomi yashirilgan g‘azalining muvashshah ekanligini g‘azal maqta‘sidagi ishoradan anglash qiyin emas:

*Nogohon olsang Muqimiy, avvali har baytidin,
Harfl ar ravshan bo‘lur, albatta, ismin gavhari.*



Yoki *Abdullohxon* ismi muzayyan qilingan g‘azalning muvashshah ekanligiga shoir:

*Nazmimi(mag‘zig‘a vasfi ni), Muqimiy (toj etib,)
Naylayin har dam o‘qib, nomingni takror etmayin, –*

misralari orqali ishora qiladi. Shuningdek, ko‘pincha g‘azal maqta‘sidamuvashshahg‘azini aynan keltirish holatlari ham kuzatiladi. Jumladan, *Tojixon* nomiga bitilgan muvashshah-g‘azal:

*Nomig‘a aylarmu muvashshah,
muhabbatdin Muqim,
Bo‘lmas odamg‘a agarchandi parilar oshno, –*

misralari bilan yakunlanadi.

Shuningdek, Sidqiy Xondayliqiy va Furqatning shogirdi Amoniy Araboniy muvashshahlarining ayrimlari “*Muvashshah*” sarlavhasi ostida berilgan. Odatda g‘azallarga sarlavha qo‘yilmagan, lekin Sidqiy Xondayliqiyning 1998-yilda nashr etilgan “Tanlangan asarlar”idagi “Sobirxon” ismi muvashshah qilingan g‘azaliga berilgan izohda “She‘r o‘z nomi bilan berildi va tushib qolgan maqta‘dan oldingi bayt tiklandi” deyilganidan, demak she‘r aynan “*muvashshah*” deb nomlanganini bilish mumkin. Lekin ochiq ishoralar uchramaydigan muvashshahlar ham talaygina.

Mumtoz she‘riyatimizda muvashshahlar, asosan, erkak nomiga bitilgani holda ayol ismlari muvashshah qilingani kuzatiladi. Xususan, Muqimiyning “Adolxonim”, Haziniyning “To‘faxon”, “Ashuroyxon”, “Oyshaxon”, “To‘tixon”, “To‘ti”, Hamzaning “Dilbarxon”, Feruzning “Fanojon”, Sadriddin Ayniyning “Ninaxon” kabi ayollar ismi bilan ziynatlangan muvashshahlarini eslash kifoya. Shuningdek, shoirlar ijodida ham bu she‘riy shaklning uchrashi va ularning ayrimlari erkaklar ismiga yozilganini shoira Uvaysiy ijodida kuzatgan edik. Shoira Muazzamxon ijodida ham o‘g‘li Muzaffarxon nomiga bitilgan muvashshahning uchrashi bu she‘riy shaklga ayol shoirlar ham befarq bo‘lmaganliklaridan dalolat beradi.

Arofati MO‘YDINOVA,
CHDPU “O‘zbek adabiyotshunosligi”
kafedrasidotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha
falsafa doktori(PhD)